

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1 iyul holatiga 1932,5 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 8,6 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 712,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,8 %), qishloq aholisi soni 1220,2 ming kishini (63,2 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2020-yil yanvar-iyun

- Aholi soni **8,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **17,2 ming nafami** tashkil etdi.
- **4,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **4,4 mingta nikoh** va **0,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Buxoro viloyati aholisining umumiyo'sishi (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o`tgan yilning shu davriga nisbatan taqposlanishi**

(2019-2020 yillar 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	2019-yil	2020-yil*	O`tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 906,6</b>	<b>1932,5</b>	<b>101,4</b>
Buxoro sh.	278,8	280,9	100,8
Kogon sh.	60,9	61,4	100,8
tumanlar:			
Olot	98,2	99,4	101,2
Buxoro	164,4	167,1	101,6
Vobkent	138,0	140,1	101,5
G`ijduvon	300,8	304,6	101,3
Kogon	77,0	78,6	102,1
Qorako'l	162,4	164,2	101,1
Qorovulbozor	18,2	18,4	101,1
Peshko'	121,0	123,2	101,8
Romitan	139,5	142,2	101,9
Jondor	172,1	174,7	101,5
Shofirkon	175,3	177,7	101,4


\*) dastlabki ma`lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2020-yil 1 iyul holatiga eng ko`p aholi soni G`ijduvon tumanida 304,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,8 %ni) va Buxoro shahrida 280,9 ming kishini(14,5 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 61,4 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tuumanida 18,4 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,1%ni, Romotan tumanida 1,9 %ni, Peshko` tumanida 1,8%ni, Buxoro tuumanida 1,6%, Vobkent va Jondor tumanlarida 1,5%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Kogon va Buxoro shaharlarida 0,8% ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2020-yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)




## Demografik holat

### **Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2020-yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)**

	<b>erkak</b>	<b>ayol</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>968,2</b>	<b>964,4</b>
Buxoro sh.	139,7	141,3
Kogon sh.	29,9	31,5
tumanlar:	0,0	0,0
Olot	49,8	49,6
Buxoro	83,9	83,3
Vobkent	70,5	69,6
G`ijduvon	155,6	149,0
Kogon	38,9	39,7
Qorako'l	81,1	83,1
Qorovulbozor	9,1	9,3
Peshko`	61,6	61,5
Romitan	72,1	70,2
Jondor	86,4	88,3
Shofirkon	89,6	88,1

### **Hududlar kesimida aholi zichligi (2020-yil 1 iyul holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)**



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 17,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,0 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaygan (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 18,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Buxoro shahrida (16,0 promilledan 17,7 promillega), G'ijduvon tumanida (20,0 promilledan 20,2 promillega), Romitan tumanida (17,1 promilledan 17,2 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Buxoro tumanida (20,6 promilledan 19,5 promillega), Kogon tumanida (20,6 promilledan 18,8 promillega), Olot tumanida (20,6 promilledan 19,5 promillega) Qorovulbozor tumanida (18,5 promilledan 17,5 promillega) va Shofirkon tumanida (18,5 promilledan 18,1 promillega) kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar:  
8,8  
ming nafar

O'g'il bolalar:  
8,4  
ming nafar

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)**



## Demografik holat

### Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-iyun)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>17156</b>	<b>17225</b>	<b>100,4</b>
Buxoro sh.	2215	2471	111,6
Kogon sh.	556	538	96,8
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1000	964	96,4
Buxoro	1393	1257	90,2
Vobkent	1285	1219	94,9
G'ijduvon	2976	3047	102,4
Kogon	782	733	93,7
Qorako'l	1629	1611	98,9
Qorovulbozor	166	160	96,4
Peshko'	1039	1048	100,9
Romitan	1179	1212	102,8
Jondor	1331	1365	102,6
Shofirkon	1605	1600	99,7

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 4,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko`paygan (2019-yilning yanvar-mart oylarida 4,0 promille bo'lgan).


O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Shofirkon tumanida (4,5 promilledan 3,7 promillega), Qorako'l tumanida (4,2 promilledan 3,8 promillega), Peshko` tumanida (3,6 promilledan 3,5 promillega) kuzatilgan bo'lib, aksincha Qorovulbozor tumanida (2,0 promilledan 3,1 promillega), Buxoro shahrida (4,3 promilledan 5,0 promillega) Kogon shahrida (4,6 promilledan 5,2 promillega), Kogon (4,6 promilledan 4,9 promillega) Olot (4,3 promilledan 4,5 promillega) tumanlarida o'sish holati kuzatildi

### Vafot etganlar



**Erkaklar:** 2,1 ming kishi      **Ayollar:** 1,9 ming kishi

### Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)



## Demografik holat

### Buxoro viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (yanvar-iyun)


	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>3814</b>	<b>3960</b>	<b>103,8</b>
Buxoro sh.	595	693	116,5
Kogon sh.	138	159	115,2
<i>tumanlar:</i>			
Olot	207	221	106,8
Buxoro	310	332	107,1
Vobkent	272	292	107,4
G'ijduvon	599	608	101,5
Kogon	175	191	109,1
Qorako'l	337	312	92,6
Qorovulbozor	18	28	155,6
Peshko'	214	213	99,5
Romitan	237	253	106,8
Jondor	323	329	101,9
Shofirkon	389	329	84,6

## Demografik holat

2020-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,4 %i o'simtalardan, 4,5 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,8 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 17,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 147 nafarni tashkil etib, ularning 61,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 0,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 8,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 10,2 %i tug'ma anomaliyalardan, 4,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,2 %i yuqumli parazitar kasalliklardan va 6,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2020-yil yanvar-iyun

**Tabiiy o'sish.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 13,2 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga kamaydi. (2019-yilning yanvar-mart oylarida 13,3 ming kishi bo'lgan)



Tabiiy o'sish:  
13,2 ming kishi

### Nikoh.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,4 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan bfrcha shahar va tumanlarda rkamayish kuzatildi. Kamayish yuqori sur'atlari Shofirkon (65,3%), Buxoro (65,2 %) va G`ijduvon tumanlari (66,6 %) ga to'g'ri kelmoqda.

### Nikohdan ajralishlar.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kogon tumani (111,9%) Buxoro tumani (101,4%)va Kogon shahriga (102,2 %) to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)



### Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-iyun)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati %da	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6286</b>	<b>4419</b>	<b>70,3</b>	<b>926</b>	<b>744</b>	<b>80,3</b>
Buxoro sh.	1000	690	69,0	290	209	72,1
Kogon sh. tumanlar:	196	156	79,6	46	47	102,2
Olot	325	219	67,4	34	25	73,5
Buxoro	543	354	65,2	71	72	101,4
Vobkent	432	304	70,4	43	32	74,4
G'ijduvon	952	634	66,6	113	105	92,9
Kogon	256	172	67,2	42	47	111,9
Qorako'l	582	424	72,9	61	42	68,9
Qorovulbozor	55	48	87,3	7	8	114,3
Peshko'	385	272	70,6	34	28	82,4
Romitan	467	345	73,9	69	54	78,3
Jondor	539	439	81,4	60	43	71,7
Shofirkon	554	362	65,3	56	32	57,1

### Migratsiya

**2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,4 ming kishini tashkil etdi.** Migratsiya saldosi minus 4,6 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 3,0 ming kishi bo'lган.

#### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	2,7	1,8
Ko'chib ketganlar	5,7	6,4
Migratsiya saldosi	-3,0	-4,6

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro (minus 228 kishi), Romitan (minus 200 kishi) tumanlarida qayd etildi.

